

## Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar – may oylarida, Samarqand viloyatida jami 6 625,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



#### Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi

|  | Hajm mlrd so'm | O'sish sur'ati, % da |
|--|----------------|----------------------|
| Samarqand viloyati                                     | <b>6 625,1</b> | <b>113,1</b>         |
| <i>Shaharlar</i>                                       |                |                      |
| Samarqand sh.  | 1 440,6        | 102,2                |
| Kattaqo'rg'on sh.                                      | 128,0          | 113,1                |
| <i>tumanlar</i>  |                |                      |
| Oqdaryo  | 512,2          | 112,7                |
| Bulung'ur  | 219,1          | 107,8                |
| Jomboy   | 313,7          | 106,8                |
| Ishtixon   | 265,9          | 112,5                |
| Kattaqo'rg'on  | 157,3          | 109,2                |
| Qo'shrabot   | 281,0          | 180,8                |
| Narpay   | 148,1          | 114,4                |
| Payariq  | 556,0          | 109,1                |
| Pastdarg'om  | 310,3          | 103,3                |
| Paxtachi   | 149,5          | 102,2                |
| Samarqand  | 433,4          | 106,3                |
| Nurobod  | 64,8           | 114,5                |
| Urgut  | 283,4          | 103,4                |
| Toyloq   | 513,7          | 166,6                |
| Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmi qo'shgan holda. | 848,1          | 118,3                |

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

## II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-may oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 43,3 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 % ni tashkil etdi.

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 54,7% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 155,5 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,0 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 96,7 % ni tashkil etdi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

|   | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
|---|------------------------------|--------------------------------|--------------------------------------|
| Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm       | 118,5                        | 1 130,5                        | 0,0                                  |
| <i>o'sish sur'ati, % da</i>                         | <i>143,7</i>                 | <i>13,7 m.</i>                 | <i>0,0</i>                           |
| Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm | 1 923,6                      | 2 490,6                        | 135,8                                |
| <i>o'sish sur'ati, % da</i>                         | <i>132,8</i>                 | <i>171,9</i>                   | <i>96,7</i>                          |
| Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm                    | 826,1                        | -                              | -                                    |
| <i>o'sish sur'ati, % da</i>                         | <i>103,5</i>                 | -                              | -                                    |

### III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar - may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 249,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 191,1 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 18,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,7 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etgan holda 4 550,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 12,5 % ni yoki 826,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil etdi.

### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari

- yiriklar hajmi mlrd so'mda
- kichik va mikrofirma hajmi, mlrd so'mda
- norasmiy sektor hajmi, mlrd so'mda
- yiriklar o'sish sur'ati
- × kichik va mikrofirma o'sish sur'ati
- norasmiy sektor o'sish sur'ati



**Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

|   | Hajm mlrd so'm |                         |                 | O'sish sur'ati, % da |                         |                 |
|---|----------------|-------------------------|-----------------|----------------------|-------------------------|-----------------|
|   | Yirik          | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor | Yirik                | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Samarqand viloyati                                      | 1 249,0        | 4 550,0                 | 826,1           | 191,1                | 103,8                   | 103,5           |
| <i>shaharlar</i>  |                |                         |                 |                      |                         |                 |
| Samarqand sh.   | 115,4          | 1 284,0                 | 41,1            | 160,6                | 104,7                   | 48,0            |
| Kattaqo'rg'on sh.                                       | 3,1            | 105,2                   | 19,8            | -                    | 107,4                   | 129,1           |
| <i>tumanlar</i>   |                |                         |                 |                      |                         |                 |
| Oqdaryo   | 27,5           | 459,7                   | 24,9            | 137,0                | 112,0                   | 103,1           |
| Bulung'ur   | 25,7           | 170,5                   | 23,0            | 7,1 m.               | 96,5                    | 99,9            |
| Jomboy  | 30,4           | 260,1                   | 23,1            | 2,0 m.               | 101,2                   | 107,0           |
| Ishtixon  | 27,7           | 225,5                   | 12,6            | 2,8 m.               | 108,9                   | 65,2            |
| Kattaqo'rg'on   | 17,0           | 124,1                   | 16,2            | 2,6 m.               | 100,8                   | 110,5           |
| Qo'shrabot  | 181,5          | 82,1                    | 17,4            | 8,6 m.               | 93,9                    | 167,7           |
| Narpay  | 13,1           | 113,5                   | 21,6            | 5,7 m.               | 112,4                   | 81,9            |
| Payariq   | 90,1           | 445,3                   | 20,7            | 6,5 m.               | 94,1                    | 90,8            |
| Pastdarg'om   | 142,0          | 145,6                   | 22,6            | 91,5                 | 115,3                   | 105,1           |
| Paxtachi  | 4,0            | 126,0                   | 19,5            | 139,4                | 99,0                    | 120,6           |
| Samarqand   | 73,2           | 339,1                   | 21,1            | 125,0                | 103,9                   | 92,0            |
| Nurobod   | 6,2            | 44,5                    | 14,0            | 122,2                | 127,9                   | 84,2            |
| Urgut   | 10,2           | 256,1                   | 17,2            | 3,6 m.               | 101,5                   | 90,8            |
| Toyloq  | 353,0          | 140,4                   | 20,3            | 2,5 m.               | 91,4                    | 112,4           |
| Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda. | 128,9          | 228,3                   | 491,0           | 138,3                | 112,3                   | 116,7           |

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'shrabot tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 8,6 m.), Bulung'ur tumanida (7,1 m.) va Payariq tumani (6,5 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Nurobod tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 127,9%), Pastdarg'om tumanida (115,3%) va Narpay tumanida (112,4%) kuzatildi.

#### IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi boshqarmasi

**Ijrochi:**  
L. Haitov  
66 235-60-82 (3020)

**Manzil:**

